



BADIIY USLUBDA QO‘LLANUVCHI MURAKKAB ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Bakirova Elnora Anvarovna

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
(Farg‘ona tumani 1-umuta‘lim maktabi o‘qituvchisi)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15798884>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyun 2025 yil
Ma‘qullandi: 28-Iyun 2025 yil
Nashr qilindi: 30-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

badiiy nutq, murakkab ergash gaplarda obrazli ifodalar, poetik nutq uslubi, prozaik nutq uslubi, sintaktik vazifa.

ABSTRACT

Maqolada badiiy uslubda qo‘llanuvchi murakkab ergash gapli qo‘shma gaplar, ularning turlari ko‘rib chiqilgan, misollar bilan tahlil etilgan. Badiiy nutqning ko‘p qirrali imkoniyatlari yoritilgan

Badiiy uslub yozuvchining voqelikni nafis san‘at vositalari, obrazlar orqali ifoda etishi, tasvirlashi va shu yo‘l bilan o‘quvchiga estetik ta‘sir etishida o‘zigi xos usul hisoblanadi.


Badiiy nutqning o‘ziga xosligi shundaki, unda har bir nutq uslubiga xos sintaktik-semantik xususiyatlar mavjud. Shuningdek, unda adabiy tilning barcha nutq uslublari elementlari birga qo‘shilib, aralash qo‘llanilishi kuzatiladi.

Tilshunos olim I.Qo‘chqortoyev badiiy nutq o‘zida fikr ifodalashning ikki uslubini mujassamlashtirishini aytib o‘tadi. Ular:


- a) poetik nutq uslubi;
- b) prozaik nutq uslubi.

Badiiy nutqning poetik nutq uslubida murakkab ergash gapli qo‘shma gaplarning qo‘llanish doirasi juda tor, deyarli, uchramaydi:


Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, ka‘ba vayron o‘lsa, obod aylagay. (Alisher Navoiy)




Ul nadurkim, sabzito‘nlik yoz yog‘ochning qoshida,
Qish yalang‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida. (Uvaysiy)



Bilki, qadr bilmak aslida – vatan,
 Vatanning ma’nosi boqiy xotira. (Erkin Vohidov)




Prozaik nutq uslubida esa murakkab ergash gapli qo’shma gaplarning qo’llanish salmog’i va qamrovi boshqa nutq uslublariga nisbatan ancha keng. Chunki murakkab ergash gapli qo’shma gaplar asar muallifi gavalantirmoqchi bo’lgan tasvirni, ifodalamoqchi bo’lgan voqea-hodisani, aytmoqchi bo’lgan fikrini o’quvchiga yetkaza olish vositasi sifatida katta imkoniyatga ega: Odamboy e’tibor qilmadi, chunki ozgina sabr qilsa, rais ketishi bilan Saltanat opa – raisning xotini uni ovqatlantiradi, raisga atalgan narsalarning hammasidan unga ham tegadi. (O’lmas Umarbekov “Fotima va Zuhra”)




Badiiy nutqda murakkab ergash gapli qo’shma gaplardan quyidagi uslubiy maqsadlarni ifodalash uchun foydalaniladi:


1. Narsa, voqea-hodisalar va ularning belgi-xususiyatlarini aniqlash, izohlash uchun: U bir narsani aniq bilardiki, uni urishishmasa ham, ahvolning jiddiyligini, albatta pasanda qilishadi. (O’lmas Umarbekov “Fotima va Zuhra”)



2. Tabiat manzarasini chizish, badiiy-estetik zavq uyg’otish, ta’sirchanlikni yanada oshirish uchun: Chollar, kampirlar Qora Lochinning bo’yinlarini, yollarini, yag’rinlarini silab, bolamni qayga tashlab kelding, jonivor, qani endi til-zaboning bo’lsa-yu, bolaginam qaylarda yotganini aytib bersang, deb pichirlashardi. (Said Ahmad “Jimjitlik”)




3. Badiiy asar qahramonlarining holati, tashqi ko‘rinishi va muhim tomonlarini to‘liq berish orqali yozuvchi o‘z fikrini, hayajonini ifodalashi uchun: Mayli, u yuborgan odamni shunaqa ham maymun qilib o‘ynatayki, chapak chalsam, yo‘rg‘alab o‘yin tushib ketadigan bo‘lsin. (Said Ahmad “Jimjitlik”)



Tilshunos olim A.Mamajonov o‘zining monografiyasida badiiy nutqda qo‘shma gaplarning hamma tipi parallel qo‘llanishini, chunki qo‘shma gaplar shaxs yoki predmetning turli belgi-xususiyatlarini, zamon va makon bilan aloqador bo‘lgan holatlarni tasvirlash vositasi sifatida katta imkoniyatlarga ega ekanligini ta’kidlaydi. Shaxs yoki predmetga atroflicha xarakteristika berish, obraz yaratish, tabiat tasvirini chizish singari badiiy nutqqa xos bo‘lgan eng muhim atributlarni reallashtirishda qo‘shma gaplardan va ularning murakkab ko‘rinishlaridan keng foydalanilishiga to‘xtalib o‘tadi¹.

Badiiy uslubda murakkab ergash gapli qo‘shma gaplarning sintaktik vazifasiga ko‘ra o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lgan, deyarli, barcha turlari uchraydi:

1. Murakkab kesim ergash gapli qo‘shma gap. Bosh gap tarkibidagi kesim vazifasida kelgan ko‘rsatish olmoshi murakkab kesim ergash gap tomonidan izohlanadi. Bu vaziyatda murakkab kesim ergash gapning vazifasi bosh gapda kelgan eganing belgisini, xususiyatini ko‘rsatishdir: Vannochka degani shuki, po‘lat quvur uzunasiga kesiladi, plitanining armaturasi bilan devor armaturasi o‘rtasiga qo‘yib, “quyuq” payvand qilib yuboriladi. (O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”)




2. Murakkab ega ergash gap bosh gapda qo‘llanmagan eganing ma’nosini oydinlashtirib beradi, izohlaydi: Rostki, Munavvar o‘sha institutga kiradimi, demak, menam kiraman. (O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”)




¹ Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. Тошкент. 1990. 50-бет.

3. Murakkab aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aniqlanayotgan soʻzning harakati yoki holatiga koʻra belgisini ifodalash uchun xizmat qiladi: Shunday joyga yashirdimki, bu johil ulamolar ming yil axtarsa ham, topolmaydur. (Odil Yoqubov “Ulugʻbek xazinasi”)




4. Murakkab toʻldiruvchi ergash gap toʻldiruvchisi boʻlmagan bosh gapdagi harakatning obyektini koʻrsatadi yoki bosh gapdagi feʼl-kesimga nisbatan toʻldiruvchilik vazifasini bajaradi: Koʻryapsizmi, registratsiya ham qilinmagan, raqam ham qoʻyilmagan. (Said Ahmad “Jimjitlik”)



5. Murakkab hol ergash gapli qoʻshma gap:

- **murakkab sabab ergash gap** bosh gapdan anglashilgan mazmunning yuzaga kelish yoki yuzaga kelmaslik sababini, asosini koʻrsatadi: Sal kech qolsam, koʻcha boshiga chiqib turadi, shuning uchun xuddi aytilgan soatda uyga qaytishga harakat qilaman. (Oʻtkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”)




- **murakkab oʻlchov-daraja ergash gap** oʻzidagi voqea bilan bosh gapdagi voqeaning darajasini aniqlash uchun ishlatiladi: Oh, oh, oh, shunaqangi shirinki, yesang, labing labingga yopishib qoladi, Robiya. (Oʻtkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”)




Badiiy adabiyotda fikr obrazli va taʼsirchan chiqishi uchun maqol koʻrinishida shakllangan murakkab ergash gapli qoʻshma gaplarga murojaat qilinadi:

Elda bor shunday masalkim,

Jon chekmasang, jonona yo'q. (Erkin Vohidov)



Badiiy asar muallifi hayot voqealarini, kishilar faoliyati, xatti-harakati, fikr-o'ylari va his-tuyg'ularini obrazlar, manzaralar orqali gavdalantirishda murakkab ergash gapli qo'shma gap turlariga murojaat qiladi: Ochil bilan Madumar ko'rib turibdiki, tirikchilik o'ziga yarasha bir izga tusha boshlagan bo'lsa ham, odamlarning ko'zi so'niq. (Asqad Muxtor "Chinor")



Xulosa qilib aytganda, og'zaki va yozma nutq elementlari bilan qorishib ketgan badiiy nutq ko'p qirrali imkoniyatlarga egadir. Shuningdek, badiiy nutqning o'ziga xosligi shundaki, hammaga barobar va kishi hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi hamda barcha uslublarga xos sintaktik belgilar uchraydi. Shu bois ta'sirchan va obrazli nutqqa ega bo'lgan bu uslubda murakkab ergash gapli qo'shma gaplarning hamma turini ko'rishimiz mumkin.

INNOVATIVE
ACADEMY